





# BUXORO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2022- yil yanvar-mart  
oyi uchun dastlabki  
ma'lumot)*

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **305,8** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan **87,7** mln. AQSh dollariga yoki **40,2** % ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar-mart, mln. AQSh dollari)

	2021 - yil	2022 - yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
 Tashqi savdo aylanmasi	218,2	305,8	140,2	x
<b>Eksport</b> 	<b>89,7</b>	<b>65,3</b>	<b>72,8</b>	<b>100,0</b>
 tovarlar	87,7	62,4	71,2	95,6
 xizmatlar	2,0	2,9	145,0	4,4
<b>Import</b> 	<b>128,5</b>	<b>240,5</b>	<b>2,0 b.</b>	<b>100,0</b>
 tovarlar	128,5	240,5	2,0 b.	100,0
 xizmatlar	-	-	-	-
<b>saldo</b>	<b>- 38,7</b>	<b>- 175,2</b>	<b>x</b>	<b>x</b>




Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi **65,3** mln. AQSh dollariga (**26,8** % ga kamartdi) va import hajmi **240,5** mln. AQSh dollariga (**87,3** % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – **83,8** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

## BUXORO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2022- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)



Rossiya  
Federatsiyasi  
TSA – 71,3  
Eksport – 15,4  
Import – 55,9



Turkmaniston  
TSA – 50,3  
Eksport – 1,6  
Import – 48,8



Turkiya  
TSA – 42,7  
Eksport – 6,6  
Import – 36,2



Xitoy  
TSA – 40,4  
Eksport – 5,2  
Import – 35,2



Qozog'iston  
TSA – 17,2  
Eksport – 6,0  
Import – 11,2



Eron Islom  
Respublikasi  
TSA – 16,3  
Eksport – 5,1  
Import – 11,2



Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston va Eron bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Eron Islom Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



## 20 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2022-yil yanvar-mart)













Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Qirg'iz Respublikasi (5,6 mln. AQSh dollari), Afg'oniston (8,9 mln. AQSh dollari), Vetnam (1,2 mln. AQSh dollari), Qolgan 18 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Buxoro jahonning 70 ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (23,3 %), Xitoy Xalq Respublikasi (13,4 %), Turkmanistonda (16,5 %), Turkiya (14,0%) Xitoy (13,2 %), va Qozog'iston (5,6 %) qayd etilgan.



## BUXORO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (2022- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)













	Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
	<b>Rossiya</b>	<b>67,8</b>	<b>20,4</b>	<b>71,3</b>
	<i>Eksport</i>	8,0	11,1	15,4
	<i>Import</i>	59,9	9,3	55,9
	<b>Turkmaniston</b>	<b>22,7</b>	<b>29,6</b>	<b>50,3</b>
	<i>Eksport</i>	1,5	1,7	1,6
	<i>Import</i>	21,2	28,0	48,8
	<b>Turkiya</b>	<b>13,5</b>	<b>21,3</b>	<b>42,7</b>
	<i>Eksport</i>	3,9	8,5	6,6
	<i>Import</i>	9,6	12,7	36,2
	<b>Xitoy</b>	<b>26,6</b>	<b>35,2</b>	<b>40,4</b>
	<i>Eksport</i>	1,8	17,9	5,2
	<i>Import</i>	24,8	17,3	35,2
	<b>Qozog'iston</b>	<b>7,6</b>	<b>8,9</b>	<b>17,2</b>
	<i>Eksport</i>	2,7	1,9	6,0
	<i>Import</i>	4,9	7,0	11,2
	<b>Eron</b>	<b>28,6</b>	<b>39,0</b>	<b>16,3</b>
	<i>Eksport</i>	24,9	34,9	5,0
	<i>Import</i>	3,6	4,1	11,2
	<b>Germaniya</b>	<b>2,9</b>	<b>20,5</b>	<b>11,1</b>
	<i>Eksport</i>	0,1	0,3	0,3
	<i>Import</i>	2,8	20,3	10,9
	<b>Afg'oniston</b>	<b>8,4</b>	<b>3,2</b>	<b>9,5</b>
	<i>Eksport</i>	8,4	3,2	9,2
	<i>Import</i>	-	-	0,3
	<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>5,2</b>	<b>0,8</b>	<b>6,0</b>
	<i>Eksport</i>	5,0	0,8	5,8
	<i>Import</i>	0,2	-	0,2
	<b>Niderlandiya</b>	<b>0,1</b>	<b>0,2</b>	<b>4,5</b>
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,1	0,2	4,5



## BUXORO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSh dollari)




	Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
	<b>Franciya</b>	<b>0,2</b>	<b>0,2</b>	<b>3,5</b>
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,2	0,2	3,5
	<b>Litva</b>	<b>0,1</b>	<b>0,5</b>	<b>3,4</b>
	<i>Eksport</i>	-	0,2	0,5
	<i>Import</i>	0,1	0,3	2,9
	<b>Italiya</b>	<b>0,3</b>	<b>12,8</b>	<b>3,2</b>
	<i>Eksport</i>	0,2	0,1	1,5
	<i>Import</i>	0,1	12,7	1,7
	<b>Polsha</b>	<b>1,5</b>	<b>1,3</b>	<b>2,9</b>
	<i>Eksport</i>	1,4	1,1	0,7
	<i>Import</i>	0,1	0,2	2,3
	<b>Shvetsariya</b>	<b>0,1</b>	<b>2,0</b>	<b>2,7</b>
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,1	2,0	2,7
	<b>Tojikiston</b>	<b>3,3</b>	<b>1,7</b>	<b>2,5</b>
	<i>Eksport</i>	3,3	1,3	0,9
	<i>Import</i>	-	0,4	1,6
	<b>Ozarbayjon</b>	<b>0,2</b>	<b>0,3</b>	<b>2,3</b>
	<i>Eksport</i>	0,2	0,3	0,1
	<i>Import</i>	-	-	2,2
	<b>Ukraina</b>	<b>1,6</b>	<b>1,0</b>	<b>2,1</b>
	<i>Eksport</i>	0,9	0,6	0,6
	<i>Import</i>	0,7	0,4	1,5
	<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>6,5</b>	<b>4,1</b>	<b>1,5</b>
	<i>Eksport</i>	0,2	0,1	0,1
	<i>Import</i>	6,3	4,0	1,4
	<b>Vetnam</b>	<b>0,1</b>	<b>0,5</b>	<b>1,2</b>
	<i>Eksport</i>	0,1	0,5	1,2
	<i>Import</i>	-	-	-



## VILOYATNING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-mart, 2022-yil)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Viloyat</b>	<b>305,8</b>	<b>140,2</b>
<i>hududlar:</i>		
Olot	1,9	42,3
Buxoro	34,1	521,9
Vobkent	11,5	325,4
G'ijduvon	17,0	57,5
Kogon	22,4	157,10,6
Qorako'l	12,9	298,2
Qorovulbozor	77,1	287,8
Peshku	9,8	62,2
Romitan	14,2	27,8
Jondor	7,3	87,1
Shofirkon	13,6	159,7
Buxoro sh.	67,7	226,6
Kogon sh.	7,8	61,4
Aniqlanmagan tashkilotlar	8,5	537,1

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Qorovulbozor – 77,1**

**Buxoro sh. – 67,7**

**Buxoro – 34,1**

**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Kogon sh. - 7,8**

**Jondor – 7,3**

**Olot- 1,9**

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Qorovulbozor **25,2 %** ulush bilan **77,1 mln. AQSh dollarini** tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Olot tumani **0,6 %** ulush bilan **1,9 mln. AQSh dollarini** tashkil etdi.




Viloyatning tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.



Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2022- yilning yanvar-mart oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **49,8 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021 - yilga nisbatan ulushi **2,4** baravarga ko'paygan.

## VILOYATNING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(2022- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



10



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2022- yilning yanvar-mart oyida 2021- yilga nisbatan **0,4 %** ga kamartdi va jami TSA dagi ulushi **50,2 %** ni tashkil etdi.







## BUXORO VILOYATNING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)



1992- yil 4-yanvar-martda O'zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi)ga a'zo bo'ldi. Buxoro viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-mart holatiga **152,3** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport - **30,5** mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import – **121,8** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Viloyatning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**46,8%**), Turkmaniston (**33,0%**), Qozog'iston (**11,3 %**) va Qirg'iz Respublikasi (**3,8 %**) davlatlari bilan qayd etildi.



## BUXORO VILOYATINING EKSPORTI


(2022- yil yanvar-mart)



Joriy yilning yanvar-mart oylarida mamlakatning eksportyorlari soni **177** tani tashkil etib, ular tomonidan **65,3** mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan **27,2** % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **93,5** % ni tashkil etib, ular Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**35,9** %), Mashinalar va transport asbob-uskunolari (**35,6** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## BUXORO VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
<b>Jami eksport</b>	<b>89,7</b>	<b>65,3</b>	<b>135,3</b>	<b>72,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,3	9,7	153,9	116,7	9,2	14,8
Ichimliklar va tamaki	0,4	0,2	182,0	53,5	0,4	0,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	52,6	7,7	181,3	14,6	58,6	11,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,7	11,7	38,9	314,1	4,2	17,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	1,0	-	-	-	1,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,6	1,1	113,4	175,2	0,7	1,7
Sanoat tovarlari	21,4	30,2	128,8	141,0	23,9	46,3
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	0,1	0,0	100,0	1,8	0,1	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	0,6	1,0	35,7	154,0	0,7	1,5
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	2,0	2,7	79,5	138,4	2,2	4,2






## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamartdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2021-yil yanvar-martdagi **19,8 %** dan 2022- yil yanvar-martda **46,7 %** ga ko'paydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **53,3 %** ni tashkil etdi.



**BUXORO VILOYATIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-mart, % da)**

2022- yil yanvar-mart oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining **23,3 %**), Eron (**5,3 %**), Qozog'iston (**5,6 %**), Turkiya (**14,0 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**13,2%**) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **56,1** foizni tashkil etmoqda.



## BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-mart, yillar kesimida)



Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Rossiya Federatsiyasi	11,1	15,4	140,5	139,1	3	1
Afg'oniston	3,2	9,2	38,6	2,9 b.	5	2
Turkiya	8,5	6,6	217,9	77,2	4	3
Qozog'iston	1,9	6,0	70,4	3,2 b.	7	4
Xitoy Xalq Respublikasi	17,9	5,8	994,4	32,4	2	5
Qirg'iziston Respublikasi	0,8	5,2	16,0	6,6 b.	11	6
Eron Islom Respublikasi	34,9	5,0	140,2	14,4	1	7
Turkmaniston	1,7	1,6	113,3	92,5	8	8
Italiya	0,1	1,5	50,0	15,8 b.	14	9
Vetnam	0,4	1,2	400,0	7,2 b.	13	10
Marokko		1,0	-	-	16	11
Tojikiston	1,3	0,9	39,4	68,8	9	12
Estoniya	0,1	0,7	6,3	3,1 b.	29	13
Pakistan	0,2	0,6	100,0	3,1 b.		15
Ukraina	0,5	0,6	55,6	124,1	12	16
Bosniya va Gercogovinna	0,1	0,5	-	5,1 b.	34	17
Litva	0,2	0,5	-	2,3 b.	22	18
Hindiston	0,1	0,3	50,0	2,6 b.	31	19
Germaniya	0,3	0,3	300,0	86,0	17	20



## BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2022- yil yanvar-mart)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Viloyat</b>	<b>65,3</b>	<b>72,8</b>
<i>hududlar:</i>		
Olot	0,6	17,2
Buxoro	1,6	69,5
Vobkent	5,3	541,5
G'ijduvon	7,9	37,8
Kogon	7,2	142,7
Qorako'l	4,8	156,2
Qorovulbozor	7,7	167,6
Peshku	1,5	16,8
Romitan	5,0	45,5
Jondor	1,9	107,5
Shofirkon	6,2	135,0
Buxoro sh.	13,6	106,5
Kogon sh.	1,3	13,6
Aniqlanmagan tashkilotlar	0,7	111,2

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Buxoro sh. – 13,6**

**Kogon– 7,2**

**Qorovulbozor – 7,7**

**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Buxoro – 1,6**

**Kogon sh. - 1,3**

**Olot – 0,6**

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Buxoro shahar **25,5** % ulush bilan **5,3** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat eksporti tarkibida eng quyi ulushni Buxoro tumani **1,0** % ulush bilan **0,2** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Viloyatdagi meva-sabzavot sektori shahar va tumanlarining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **8,3** mln. AQSh dollari qiymatli **27,2** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2021- yilning mos davriga nisbatan **1,3** mln. AQSh dollarida ko'payish kuzatilib, **15,8 %** ga ko'paydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **6,3** mln. AQSh dollariga teng **21,8** ming tonna sabzavot, shuningdek, **2,3** mln. AQSh dollari qiymatidagi **1,4** ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2022- yil yanvar-mart)

Davlatlar	ming tonna	Mln. AQSH dollari	ulushi, % da *
Qozog'iston	21,4	5,1	69,9
Rossiya Federatsiyasi	0,7	0,7	9,7
Boshqa davlatlar	6,5	2,5	20,4


\* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'istonga to'g'ri keladi. Bu meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **69,9 %** ini tashkil qiladi.



## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2022- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **2,7** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **4,1** % ini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan **51,1** % ga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (**72,4** %) va safarlar (turizm) (**17,9** %) hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlar (**9,3** %) va boshqa xizmatlar (**0,4** %) ni tashkil etgan.






## BUXORO VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-mart)



2022- yil yanvar-mart oyida import hajmi **240,5** mln. AQSh dollarini va 2020-yilga nisbatan **187,3** % ga etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**35,9** %), sanoat tovarlari (**35,6** %) hisobiga to'g'ri keldi.

### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yil yanvar-martda import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **67,1** mln. AQSh dollariga ko'paydi va **38,1** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



## BUXORO VILOYATINING XSST BOYICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)




XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
<b>Jami import</b>	<b>128,5</b>	<b>240,5</b>	<b>91,9</b>	<b>187,3</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,4	7,8	143,0	144,2	4,2	3,2
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,1	-	173,8	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,9	5,9	76,0	153,6	3,0	2,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	30,8	86,4	45,4	280,8	24,0	35,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,0	736,9	34,2	0,1	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	8,6	22,1	89,7	257,8	6,7	9,2
Sanoat tovarlari	10,0	25,2	92,7	252,4	7,8	10,5
Mashinalar va transport asbob uskunalari	63,3	85,6	236,2	135,3	49,3	35,6
Turli xil tayyor buyumlar	6,4	7,4	40,1	115,8	5,0	3,1
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar						



## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2022- yil yanvar-mart oyi yakuni bo'yicha Buxoro viloyati tomonidan 50 davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Eron, Germaniya va Qozog'iston) jami importning **83,3** % ulushini tashkil qildi, bu **54,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



### VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-mart % da)



## BUXORO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-mart, yillar kesimida)



Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Rossiya Federatsiyasi	9,3	55,9	15,6	600,7	1	1
Turkmaniston	27,9	48,8	131,6	174,8	3	2
Turkiya	12,7	36,2	132,3	2,8 b.	4	3
Xitoy Xalq Respublikasi	17,2	35,2	69,4	2,0 b.	2	4
Eron	4,1	11,2	113,9	2,7 b.	7	5
Qozog'iston	6,9	11,2	140,8	162,7	6	6
Germaniya	20,3	10,9	7,2 b.	53,5	15	7
Franciya	0,2	4,5	100,0	22,7 b.	21	8
Niderlandiya	0,2	3,5	10,0 b	17,7 b.	17	9
Litva	0,3	2,9	3,0 b	9,8 b.	10	10
Shveysariya	2,0	2,7	20,0 b	132,9	13	11
Polsha	0,2	2,3	2,0 b	11,3 b.	16	12
Ozarbajjon	0,02	2,2	-	111,3 b.	-	13
Italiya	1,6	1,7	177,8	106,4	19	14
Tojikiston	0,4	1,6	-	3,9 b.	22	15
Ukraina	0,4	1,5	-	3,7 b.		16
Koreya Respublikasi		1,4	-	-	5	17
Latviya	0,2	1,1	-	5,6 b.	35	18
Hindiston	1,6	0,8	3,2 b	51,1	41	19
Avstriya	0,1	0,7	-	7,6 b.	16	20



## BUXORO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2022- yil yanvar-mart)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Viloyat</b>	<b>240,5</b>	<b>187,3</b>
<i>hududlar:</i>		
Olot	1,3	125,9
Buxoro	32,5	778,0
Vobkent	6,2	243,0
G'ijduvon	9,1	104,6
Kogon	15,3	153,9
Qorako'l	8,1	645,0
Qorovulbozor	69,4	312,6
Peshku	8,3	126,9
Romitan	9,2	22,9
Jondor	5,3	81,5
Shofirkon	7,4	188,2
Buxoro sh.	54,1	316,4
Kogon sh.	6,5	196,1
Aniqlanmagan tashkilotlar	7,8	-

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Qorovulbozor – 69,4**

**Buxoro sh – 54,1**

**Buxoro – 32,5**

**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Vobkent – 6,2**

**Jondor – 5,3**

**Olot – 1,3**

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qorovulbozor tumani **28,8** % ulush bilan **69,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Olot tumani **0,5** % ulush bilan **1,3** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi.**  
Tel.: (65) 223-75-63

